

**«Ommaviy axborot vositalari, noshirlik-matbaa mahsulotlarida diniy-ma'rifiy mavzularni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari» mavzuidagi ilmiy-amaliy anjumandagi O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Bosh direktori  
A. Yunusovning ma'ruzasi**

Hukumatning tegishli topshiriqlariga asosan O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda O'zbekiston musulmonlari idorasini bilan hamkorlikda matbuotda diniy-ma'rifiy mavzular, diniy aqidaparastlik, ekstremistik oqim va missionerlarning g'arazli faoliyatini fosh etishga qaratilgan materiallar tashkil etish borasida qator yillardan beri hamkorlik qilib kelmoqda.

O'tgan davrda ushbu hamkorlikning natijasi o'laroq yiliga 100 dan ortiq material tashkil etilib, respublika matbuotida yoritilishi ta'minlanmoqda. Bu materiallar respublikamizda diniy vaziyatni yanada sog'lomlashtirish, konfessiyalar va millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim omil bo'layotganini e'tirof etish lozim.

Mamlakatimizda diniy aqidaparastlikka qarshi qaratilgan amaliy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qonuniy poydevorga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», deb belgilab qo'yilgan.

Yurtimizda mustaqillik yillarda diniy e'tiqod erkinligi, dinning mohiyati aholiga yetkazish, insonparvarlik g'oyalari, dinga sog'lom munosabat masalalari o'zining oqilona ifodasini topdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiyaga tegishli diniy tashkilotlar, shuningdek, Toshkent islom universiteti va Toshkent islom instituti kabi tuzilmalar faoliyat yuritayotgani, fuqarolar emin-erkin diniy amallarni bajarayotgani buning yorqin isbotidir.

Shunday bo'lsa-da, keyingi vaqtarda yon-atorfimizda sodir bo'layotgan voqyealar, diniy ekstremizm va terrorizmning yangi-yangi turlari paydo bo'layotgani har qanday ma'rifatli odamni yanada hushyor torttiradi. Diniy shiorlar ostida siyosiy hokimiyatga intilayotgan ayrim diniy ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishga urinmoqda. O'zni Iroq va Shom Islom davlati deb atagan qora kuchlarning insoniylikka mutlaqo to'g'ri kelmaydigan faoliyati bilan ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'ida tarqatilayotgan ma'lumotlar orqali tanishib turibmiz.

Ekstremistik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tashviqot sub'yekti asosan yoshlar ekani, ularning soxta g'oyaga aldanib qolish holatlari uchrayotgan, bu targ'ibot jamiyatdagি ma'naviy-ruhiy muhitning buzilishiga sabab bo'lishi mumkinligi ayniqsa xavflidir.

Yuqoridagi holatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida 2009 yildan buyon Hukumatimiz tomonidan har yili alohida dasturlar qabul qilinayotganini ta'kidlash joiz.

Bugungi tadbir ham Hukumatning joriy yil 2 fevraldagи 3-son majlisи bayonining qarori bilan tasdiqlangan Dasturda belgilangan topshiriqqa asosan O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, Milliy axborot agentligi, Milliy

teleradiokompaniya, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan tashkil etildi.

Ilmiy-amaliy anjumanda ushbu tashkilotlarning mutasaddi xodimlari, Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan 50 dan ortiq ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Tadbirda Din ishlari bo'yicha qo'mita vakillari, yetakchi islomshunos olimlar va ekspertlarning ma'ruzalarini tinglash, bugungi diniy vaziyatni o'zida aks ettirgan hujjatli film tomosha qilish va savol-javoblar o'tkazish rejalashtirilgan.